

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA HUSNIXAT MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Nukus innovatsion instituti o‘qituvchisi

Xo‘jamqulova Nafisa

1-kurs talabasi

Rajabboyeva Sarvigul

Annotatsiya Berilgan maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining husnixat malakasini oshirishi, estetik didining oshishi, gigiyenik qoidalarga rioya qilgan holda dars o‘tishi, o‘quvchilarning ko‘rish, eshitish, qo‘l harakati, sezgilarini ishga sola bilish qobiliyatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ona tili va o‘qish savodxonligi, husnixat, boshlang‘ich ta‘lim

Husnixat-chiroyli yozuv, chiroyli yozuv san’ati demakdir. Bolajonlar maktabga ilk qadamini qo‘yar ekan oldilariga katta maqsadni qo‘yib keladilar. Ular katta qiziqish bilan “Men ko‘p narsalarni o‘rganaman” deb keladilar. Bolajonlar uchun yangi hayot bosqichi boshlanadi. O‘qituvchi bolalar bilan tanishib bo‘lganlaridan so‘ng, ijtimoy ahvoriga qarab ularni joylarga o‘tirgizadilar. Birinchi, ikkinchi darslar tanishuv darslari bo‘ladi. Keyingi darslardan boshlab, o‘qituvchi bolalarga savodxonlik darslarini o‘ta boshlaydi. Alifbodagi harflarni o‘rganayotgan bolaga chiroyli yozuv haqida ham ma’lumotlar berib boriladi. Har bir harfning necha unsurdan tashkil topganligi, qay tarzda yozilishi o‘qituvchi tomonidan doskada ko‘rsatib beriladi. Bolalarga boshidan daftarni 65°gradus qiyalikda qo‘yishlari, daftarni toza, ozoda tutishlari, ruchkani to‘gri ushlashi kerak ekanligi, imlo xatolarga e’tibor berishlarini aytib o‘tisa, o‘qituvchining husnixatga o‘rgatishi shuncha oson bo‘ladi. 1-sinf dan boshlab bolalarga ikki yo‘lli daftar tavsiya etiladi. O‘quvchilar uchun bu daftardan foydalanish ancha yengillik bo‘ladi. 2-sinfning ikkinchi yarmidan boshlab bolalarga bir yo‘lli daftarga yozdiriladi. Bir yo‘lli daftar bolalarni mustaqil hayotga qadam qo‘yishlariga yordam beradi. O‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada oshiradi.

Husnixatga o'rgatish tamoyillari:[1]

1.Ko'rgazmalilik tamoyili: Ko'rgazmali vositalar, karton, jadvallarda oldindan yozib namoyish qilish, ko'rgazmali harakat, xattaxta, daftarda o'quvchilar qo'ldan ushlab yozdirishda namoyon bo'lishi.

2.Onglilik tamoyili: O'quvchilarning harf shakllarini qanday va qay tartibda yozishi, qiyaligi, bo'yi, enini mo'ljallashda, harflarni keyingi harflarga ulashda, ruchka ushlashda, partada o'tirish qoidalari, grafik kamchiliklarni aniqlay bilishda namoyon bo'lishi.

3.Takrorlash tamoyili: Yozish jarayonini avtomatlashtirish asosidir.Takrorlash, yozuvni tahlil qilish, taqqoslash, xatolarni tuzatish tarzida olib borilishi, uning mexanik va samarasiz mashqqa aylanib qolmasligi.

4.Genetik tamoyil: Harf elementlarini o'rganuvchi, shakli oson harflardan so'ng shakli murakkab guruhini yozish, harf birikmasi, bo'g'in, so'z, gap tarkibida yozuvni uyushtirish

O'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish: Har bir o'quvchining ruchka ushlashi, daftar tutishi,yozuv tezligi,yutuq va kamchiligini hisobga olish, yozuvga o'rgatishni o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirish savod o'rgatishda asosiy prinsiplardan ekanligi.

Chiroyli yozuvning imlo bilan bog'liqligi: Bolalarni yozuvga o'rgatishda unga kompleks yondashuv. Yozuvning har tomonlama talabga javob berishi uchun so'zning grafik va imloviy tomondan to'g'ri shakllantirilishi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda husnixat darslarini tashkil etish masalalari

Husnixat o'rgatishda va rivojlantirishda hozirgi paytda katta televizorlar orqali dars o'tilib, bolalarga harfning qay holda yozilishi ko'rsatib berilmoqda. Harflarning necha unsurdan tashkil topganini multifilm qilib ko'rsatib berilsa ham bo'ladi. Multifilm qahramoni bironta harf bo'lsa, uni unsurlariga bo'lgan holda boshqa qahramonlarni yaratamiz. Multifilm qahramonlari yaxshi obraz vakillari bo'ladi va multifilm yakunida barcha unsur qahramonlari birlashib yagona harfni tashkil qiladi. Bu multifilm bilan bolani zeriktirib qo'yish oldini oladi hamda esda saqlashi oson kechadi. Faqat gap bilan

aytilib, yoki yod oldirilsa tezda esidan chiqishi mumkin. Texnika rivojlangani sari bolalarning fikrlashi o'sib bormoqda. Yozuvga o'rgatishning usullari: Ritmik usul. Bunda o'quvchilar o'qituvchining sanog'i ostida yozishni mashq qilishi, uning qiziqarliligi, butun sinf bilan ishlash imkoniyatiga ega ekanligi. Biroq bu usulni doimiy qo'llash o'quvchilarni toliqtirishi, mehnatga bo'lgan qiziqishini so'ndirishi mumkin.

Qo'l harakatlarini mashq qildirish usuli. Bunda barmoqlar bilan yelka harakatlari mashq qildirilishi nazarda tutiladi. O'quvchilarning husnixatini chiroyli qilishda turli xil interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Masalan: Rasmga qarab matn yozish bunda o'qituvchi tomonidan biron bir qiziqarli rasm topiladi. Televizorda rasm ko'rsatiladi yoki nusxasi doskaga ilib qo'yiladi. O'qituvchi ushbu rasmga qarab besh yoki oltita gap yozishi kerakligini, chiroyli yozish qoidasiga amal qilishini, matnda gaplar bir biriga mos kelishini uqtirib o'tiladi. Chiroyli yozgan har bir o'quvchi rag'batlantirilishi kerak. Bolaga qancha ko'p rag'bat berilsa, uning yozishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Har xil o'yinlar orqali o'tiladigan dars ham bolani zeriktirib qo'ymaydi. Aynan fanga kiritilgan metodlar yoki o'yinlar emas, o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga asoslangan metodlar orqali ham husnixatga o'rgatish mumkin. Faqatgina ona tili va o'qish savodxonligi fanida yozuv mashqlari olib borilmasdan matematika, tabiat va shu singari fanlarda ham husnixat mashqlari olib borilsa bo'ladi. Matematika fanini olaylik. Boshlang'ich sinflarda xona birliklari o'rgatilgandan so'ng o'qituvchi tomonidan matematik diktant olinishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga "Men son aytaman, siz men aytgan sonni harflab, chiroyli yozish qoidalariga asoslanib yozasiz. Qaysi biringiz chiroyli va bexato yozsangiz, chaqqonlik bilan birinchi ko'rsatsangiz ushbu ertak kitobi bilan taqdirlanasiz"-deydi. O'quvchida bu metod ham chiroyli yozishga ham tez bo'lishga ham kitobga bo'lgan muhabbatini oshirishga yordam beradi.

Qiziqarli faktlar

Husnixat ko'p narsalar haqida so'zlaydi. Qanday bo'lmasin, maktabda ilk darslardan oq bolalarga chiroyli yozishga o'rgatiladi. Qoidalar hamma uchun bir xil biroq keyinchalik har kimning "o'z husnixati" shakllanadi. Nima uchun shunday bo'ladi? Bu savolga yozuvlarni tahlil qilish orqali odamning fe'l-atvorini bilish san'ati-grafologiya to'g'ri javob berishi mumkin.[5]

Chap tomonga engashtirib yozilgan yozuv-o‘jarlik belgisidir. Bunday odam ba’zan ehtiyotkor, ba’zan qat’iyatsiz bo‘ladi. O‘ng tomonga engashtirilgan yozuv-yorqin ongga ega bag‘ayrat kishi tabiatga xosdir.

Batartib harflar-odamni faqat eng yaxshi tomondan tavsiflaydi, bu uning ish yuritishi va o‘zini to‘g‘ri tuta olishidan dalolat beradi.

Baland bo‘yli harflar-shaxsning aristokratizmlikka moyillikka anglatadi.

Sershox harflar-kishi xatti-harakatlarining mardonovorligi, jur’atligini ko‘rsatadi.

Ko‘p ilmoqli yozuv egasi-o‘ziga ortiq darajada bino qo‘ygan.

Yirik harflar-samimiy va ko‘ngli ochiq kishilarga xosdir.

Burchakli harflar-xudbinlikdan ishora.

Yumaloq harflar-marhamatli kishilarga xos.

Siqilgan harflar-ziqnalikni tavsiflaydi.

Yirik-yirik va oralari ochilgan yozuv egalari –isrofgarchilikka moyil kishilardir.

Pastga qarab ketadigan qatorlar-o‘ziga past baho beradiganlar.

Tepaga qarab ko‘tarilish-izzatlablikdan dalolat.

Mayda yozuv-odamovi(damduz)

Bir tekis harflar-bamaylixotirlik haqida gapiradi.

Ingichka harflar-ilmiy faoliyatga iste’dod nishonasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.K.Qosimova,S.Matchonov,X.G‘ulomova,SH.Yo‘ldosheva,Sh.Sariyev.”Ona tili o‘qitish metodikasi”Toshkent.2009

2.Boshlang‘ich sinf ona tili dasturi.T.,2000

3.Abdullayeva Q.va boshq .Alifbe,T.,1999

4.X.G‘ulomova,Sh.Yo‘ldosheva,G.Mamatova,H.Boqiyeva,N.Sobirova.Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.Toshkent,2008

5.www.pedagog.uz

6.www.yuz.uz